



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

SADOQAT VA XIYONATNING FALSAFIY QARAMA-QARSHILIGI

Qosimova Nilufar Saidjonovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sadoqat va xiyonat tushunchalarining falsafiy-axloqiy, lisoniy-madaniy va badiiy-estetik jihatlari keng ko'lamda tadqiq etiladi. Insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida fundamental axloqiy mezonlar hisoblangan sadoqat va xiyonatning badiiy adabiyotdagi konseptual inikosi jahon va o'zbek adabiyoti durdonalari misolida qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada sadoqatning inson ruhiy kamoloti va ijtimoiy barqarorlik asosi ekanligi, xiyonatning esa ma'naviy tanazzul va shaxs inqirozi sifatidagi falsafiy talqinlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sadoqat, xiyonat, axloqiy kategoriya, konseptual tahlil, badiiy talqin, lingvo-madaniyat, ziddiyat, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy mas'uliyat.

ФИЛОСОФСКОЕ ПРОТИВОСТОЯНИЕ ВЕРНОСТИ И ПРЕДАТЕЛЬСТВА

Косимова Нилуфар Саиджоновна

Джизакский государственный педагогический университет, преподаватель

Аннотация

В статье проводится комплексный анализ понятий верности и предательства с философско-этической, лингвокультурной и художественно-эстетической точек зрения. Исследуется их роль как фундаментальных нравственных категорий на различных этапах развития человеческой цивилизации, а также их концептуальное отражение в художественной литературе на примере произведений мировой и узбекской литературы. Верность интерпретируется как основа духовного развития личности и социальной стабильности, тогда как предательство рассматривается как проявление морального упадка и личностного кризиса.

Ключевые слова: верность, предательство, нравственная категория, концептуальный анализ, художественная интерпретация, лингвокультурология, противоречие, психология личности, социальная ответственность.

THE PHILOSOPHICAL OPPOSITION OF LOYALTY AND BETRAYAL

Qosimova Nilufar Saidjonovna

Jizzakh State Pedagogical University, Lecturer

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the concepts of loyalty and betrayal from philosophical-ethical, linguocultural, and aesthetic perspectives. It explores their role as fundamental moral categories throughout different stages of human civilization and examines their conceptual representation in world and Uzbek literature through a comparative approach. Loyalty is interpreted as a foundation for personal spiritual development and social stability, while betrayal is viewed as an expression of moral decline and personal crisis.

Keywords: loyalty, betrayal, moral category, conceptual analysis, literary interpretation, linguoculturology, contradiction, personality psychology, social responsibility.

Sadoqat va xiyonat tushunchalari insoniyat tarixining eng qadimiy va o'zgarmas axloqiy mezonlari sirasiga kiradi. Falsafiy nuqtai nazardan sadoqat bu nafaqat bir shaxsga yoki guruhga bo'lgan bog'liqlik, balki insonning o'z ichki e'tiqodi, axloqiy tamoyillari va ijtimoiy burchiga

sodiqligidir. Sadoqat, asosan, ijtimoiy va etik qoidalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, biror kishining o‘zining jamiyatdagi yoki guruhdagi o‘rni va vazifasiga nisbatan mas’uliyatini anglatadi [8].

Xiyonat esa, aksincha, o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarga qasddan zarar yetkazish, umuminsoniy yoki shaxsiy kelishuvlarni buzishni anglatadi. Ushbu ikki tushuncha o‘rtasidagi doimiy kurash inson ruhiyatining murakkab qirralarini ochib beradi. Falsafiy mushohadalarga ko‘ra, sadoqat va xiyonatning asosiy motivlari shaxsning ichki ehtiyojlari va dunyoqarashi bilan belgilanadi. Sadoqatning nazariy asoslaridan biri uning yuksak axloqiy ko‘rinishidir [10]. U insonning o‘z ruhiga, o‘z so‘ziga va o‘zligiga sodiq qolishini nazarda tutadi.

Adabiy asarlarda xiyonat ko‘pincha qahramonning o‘z shaxsiy manfaatlarini umumiy manfaatlardan yoki ma’naviy qadriyatlardan ustun qo‘yishi natijasida yuzaga keladi. Sadoqat va xiyonat ko‘pincha dramatik tanlov vaziyatlarida namoyon bo‘ladi. Bunday tanlovlar insonning ichki dunyosidagi ziddiyatlarni, ehtirosalar va aql o‘rtasidagi kurashni ko‘rsatadi [9]. Xiyonat adabiyotda nafaqat salbiy harakat, balki axloqiy qulash va ma’naviy o‘limning boshlanishi sifatida tasvirlanadi. Bu jarayon qahramonning o‘z burchlariga yoki muqaddas hisoblangan e‘tiqodlariga xiyonat qilishi orqali amalga oshadi.

Masalan, Henrik Ibsenning mashhur **“Nora yoki Qo‘g‘irchoq uyi”** dramasi o‘laylik. Nora o‘z oilasiga va jamiyat tomonidan yuklatilgan an’anaviy ayollik burchlariga “xiyonat” qilib, uydan ketadi. Biroq bu yerda falsafiy savol tug‘iladi: bu xiyonatmi yoki shaxsning o‘zligini asrab qolishi? Nora o‘zining “qo‘g‘irchoq” sifatidagi hayotiga chek qo‘yish orqali o‘z xarakterini va erkinligini himoya qiladi. Demak, adabiyotda xiyonat ba‘zan eskirgan qoidalarga isyon sifatida ham talqin qilinishi mumkin [6].

O‘zbek adabiyotida ham bu mavzu chuqur yoritilgan. Tohir Malikning **“Shaytanat”** asaridagi Salohiddin obrazi orqali insonning qanday qilib bosqichma-bosqich axloqiy tanazzulga yuz tutishi, o‘z do‘stlari va oilasiga xiyonat qilishi psixologik aniqlik bilan tasvirlangan. Bu asarda xiyonat insonni butunlay mahv etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi [4].

Sadoqat va xiyonat o‘rtasidagi ziddiyat axloqiy tanlov va mas’uliyatni aks ettiradi. Adabiyotda qahramonlar ko‘pincha ziddiyatli sadoqatlar yoki sadoqat va shaxsiy manfaatlar o‘rtasida tanlov qilish zarurligi bilan duch kelishadi. Bu tanlovlar inson hayotining axloqiy murakkabligini va axloqiy dilemmalarni hal qilishdagi qiyinchiliklarni yoritadi. Adabiyotda sadoqat va xiyonatning falsafiy-axloqiy ko‘rinishlari inson hayotining axloqiy o‘lchamlarini o‘rganadi. Sadoqat ishonch, ijtimoiy bog‘liqlik va shaxsiy yaxlitlikni mustahkamlaydigan fazilat sifatida tasvirlangan bo‘lsa, xiyonat axloqiy muvaffaqiyatsizlik sifatida ko‘riladi, bu esa mojaro, aybdorlik va ko‘pincha fojialarga olib keladi.

Xiyonat adabiyotda ko‘pincha axloqiy qulashni ifodalovchi tushuncha sifatida ko‘rinadi. Bu qahramonning o‘z burchlariga yoki e‘tiqodlariga xiyonat qilishi orqali namoyon bo‘ladi. Xiyonat insonning o‘z vijdoniga qarshi qilgan harakati yoki o‘z yaqinlariga yetkazgan zararini tasvirlaydi.

Xiyonatning aks etishi ko‘pincha qahramonning ichki ziddiyatlari va ichki qutblanishi bilan bog‘liq. Masalan, Ibsenning **“Nora yoki Qo‘g‘irchoq uyi”** dramasi Nora o‘z oilasiga va turmushiga “xiyonat” qilib, erkinlik va o‘zlikni saqlash istagini ifodalaydi.

Xiyonatning falsafiy-axloqiy mohiyati ba‘zan insonning hayoti yoki obro‘si uchun yuqori narx bilan bog‘liq bo‘ladi. Xiyonatning oqibatlarini adabiyotda insonning yemirilishi, vijdon azobi va ijtimoiy tanazzulni o‘z ichiga olishi mumkin. **“Shaytanat”** asarida asosiy qahramon Salohiddinning axloqiy qulashini ko‘rish mumkin.

Sadoqat va xiyonat ko‘pincha axloqiy tanlov sifatida tasvirlanadi. Bu tanlov insonning o‘z tamoyillariga yoki e‘tiqodlariga sodiqlik va ularni buzish o‘rtasida muvozanatni saqlashni ifodalaydi. Bunday tanlovlar insonning ichki kurashi va uning atrofidagi dunyo bilan o‘zaro munosabatlarini ochib beradi.

Adabiyotda sadoqat va xiyonat inson tabiatining murakkabligini, uning axloqiy

qarorlarini va ziddiyatli hissiyotlarini ifodalovchi tushunchalar sifatida aks ettiriladi. Har bir qahramonning sadoqat yoki xiyonat yo'lini tanlashi uning insoniy qiyofasini ochib beradi va o'quvchini axloqiy falsafa haqida o'ylashga undaydi. Adabiyotda sadoqat va xiyonatning falsafiy-axloqiy ko'rinishlari, asosan, insonning o'zligiga, vijdoniga va burchiga nisbatan munosabati bilan bog'liq. Bu tushunchalar orqali adabiyot insoniyatning eng chuqur va murakkab axloqiy muammolarini tadqiq qiladi va ularni o'quvchiga tushuntirishga harakat qiladi. Jahon adabiyotida vafo masalalari, ya'ni sadoqat, sodiqlik va vafodorlik kabi mavzular muhim o'rin tutadi. Bu mavzu ko'plab asarlarda turli shakllarda ko'rinish topgan. Quyida ayrim muhim misollar keltiriladi.

Insoniyat badiiy tafakkurida sadoqatning eng yuksak cho'qqisi sifatida Gomerning **“Odisseya”** dostoni tilga olinadi. Odisseyning rafiqasi Penelopa obrazi vafodorlikning universal timsoliga aylangan. Yigirma yillik ayriliq, Odisseyning tirikligiga bo'lgan shubhalar va ko'plab sovchilarning tazyiqlariga qaramasdan, Penelopa o'z ahdiga sodiq qoladi. Uning bu sadoqati shunchaki oilaviy vafodorlik emas, balki iroda kuchi va ma'naviy barqarorlikning g'alabasidir [5].

Aksincha, Odisseyning uyiga suqulib kirgan va uning mulkini talon-taroj qilayotgan sovchilar xiyonat, ochko'zlik va axloqsizlikning timsolidir. Ular mehmondo'stlik qoidalarini buzib, xonadon sohibiga nisbatan xiyonat qiladilar. Shuningdek, asarda Odisseyning ba'zi safdoshlari uning buyruqlariga bo'ysunmay, xudolar g'azabiga duchor bo'lishi ham sadoqatning saqlovchi, xiyonatning esa halokatli kuch ekanligini tasdiqlaydi. Dostonda xiyonat qilganlar o'z qilmishlari uchun jazolanadi. Sovchilar Odissey tomonidan o'ldiriladi, jangchilarning xiyonati ularning halok bo'lishiga olib keladi, Klytemnestra ham o'g'li Orest tomonidan qatl qilinadi. Bu xiyonatning zararli va halokatli oqibatlarini ko'rsatadi. **“Odisseya”** dostonida xiyonat insoniyatning eng zaif tomonlarini ochib beradi va sadoqatning qanchalik muhim ekanligini ta'kidlaydi. Asarda sadoqat va xiyonatning to'qnashuvi orqali insonning axloqiy qarorlariga va ularning oqibatlariga diqqat qaratilgan. Shuningdek, dostonda sadoqat ham muhim mavzulardan biri bo'lib, u bir necha asosiy personajlar orqali yoritiladi.

Sharq adabiyotida sadoqat va xiyonat masalasi ko'pincha ishqiy-falsafiy yo'nalishda talqin etiladi. Nizomiy Ganjaviyning **“Layli va Majnun”** dostonida Majnun (Qays) Layliga bo'lgan sadoqati dunyoviy chegaralardan chiqib, ilohiy darajaga ko'tariladi. Majnun uchun sadoqat bu o'zligidan kechish va butun borlig'ini sevgiliga bag'ishlashdir. Bu jarayonda u jamiyatdan, kiyimlardan, hatto o'z ismidan voz kechadi [1].

Layli ham o'z navbatida, ota-onasi va jamiyatning qattiq tazyiqlariga qaramay, qalbida Majnunga sadoqatini saqlaydi. Laylining boshqa bir kishiga majburan turmushga berilishi uning xiyonati emas, balki shaxs erkinligini bo'g'uvchi jamiyatning xiyonatidir. Nizomiy sadoqatni inson ruhining eng yuksak kamoloti sifatida ulug'laydi va uni faqat chinakam fidoyilar erishadigan martaba deb hisoblaydi.

“Layli va Majnun” dostoni sevgi, fidoiylik va sadoqat kabi mavzularni qamrab oladi. Majnun Layliga bo'lgan sevgisi shu qadar sof va kuchliki, u dunyoviy barcha narsalardan voz kechib, o'zini bu ishqqa butunlay bag'ishlaydi. Dostonda Laylining sevgisi ham ulug'lanadi, u Majnunni chin dildan sevadi, lekin ijtimoiy bosimlar va ota-onasining talablariga bo'ysunishi tufayli baxtli bo'la olmaydi. Doston, shuningdek, ishq va aql o'rtasidagi ziddiyatni ham ochib beradi. Majnun sevgisi uni aqlini yo'qotib, devonaga aylantiradi, ammo shu orqali u ilohiy bir sevgi darajasiga ko'tariladi. Bu sevgi nafaqat dunyoviy, balki ilohiy sevgi ramzi sifatida ham qabul qilinadi.

Yigirmanchi asr adabiyoti sadoqat mavzusiga yangicha, ko'proq realistik va fojiali nuqtai nazardan yondashdi. Fitzgeraldning **“The Great Gatsby”** (**“Buyuk Getsbi”**) romani 1920-yillardagi Amerika jamiyatidagi axloqiy buzilishlarni fosh etadi. Jay Getsbi o'zining butun hayoti va boyligini Daisyga bo'lgan sadoqatini isbotlashga sarflaydi. Uning sevgisi idealistik va cheksizdir.

Biroq Daisy bu sadoqatga loyiq emasligi ma'lum bo'ladi. Romandagi Tom, Daisy va Myrtlening bir-biriga bo'lgan xiyonatlari moddiyatga berilgan, ma'naviyatsiz jamiyatning haqiqiy

yuzini ko'rsatadi. Getsbi sadoqat qurboniga aylanadi, chunki u o'zining vafodorligini xiyonatkor va beqaror dunyo bilan bog'lagan edi. Bu asar sadoqatning fojiali oqibatlarini mahorat bilan yoritib beradi [2].

Nobel mukofoti sovrindori Toni Morrisonning **“Beloved”** (**“Sevimli”**) romani sadoqat masalasini eng og'ir sharoitlarda — qullik kontekstida o'rganadi. Sethe o'z farzandlarini qullikning dahshatli azoblaridan, insoniylikni yo'qotuvchi tizimdan qutqarish uchun o'z qizini o'ldiradi. Bu harakat tashqi tomondan eng dahshatli jinoyat bo'lib ko'rinsa-da, onalik sadoqatining eng fojiali va ekstremal ko'rinishidir [3]. Toni Morrisonning **“Beloved”** romanida xiyonat masalasi ham muhim o'rin tutadi. Qahramonlarning xiyonatga duch kelishi va ularning bu holatga bo'lgan munosabati asarning asosiy mavzularidan biridir. Bu xiyonatlar ko'pincha qullik davridagi sharoitlar va insoniy munosabatlar bilan bog'liq. Sethening sevgilisi Halle unga sadoqatli bo'lsa-da, Sethe undan yordam kutganida, Halle yordam bera olmaydi. Sethening o'z farzandlarini qullikdan qutqarish uchun qilgan harakati atrofidagi jamiyat tomonidan noto'g'ri tushuniladi va qoralaydi. Bu ham Sethe uchun xiyonat sifatida qabul qilinadi, chunki u o'z farzandlarini himoya qilish uchun qilgan ishini to'g'ri deb biladi, lekin jamiyat uni tushunmaydi va ayblaydi. Sethe o'z farzandlariga shunchalik sodiqki, u ularning jismoniy o'limini ma'naviy qullikdan afzal ko'radi. Shu bilan birga, asardagi erkak qahramonlar, xususan Paul D ning Setheni tark etishi yoki uning qilmishini tushunmasligi xiyonat sifatida qabul qilinadi. Morrison sadoqat va xiyonatni insoniy iroda hamda tarixiy azoblar chorrahasida tahlil qiladi [11].

Xulosa qilib aytganda, sadoqat va xiyonat inson tabiatining eng murakkab ziddiyatlarini o'zida mujassam etgan fundamental kategoriyalardir. Sadoqat va xiyonat tushunchalari nafaqat falsafiy, balki lisoniy-madaniy, ya'ni lingvokulturologik jihatdan ham boy ma'no qatlamlariga ega. Turli tillardagi maqollar, iboralar va metaforalar ushbu konseptlarning xalq tafakkuridagi o'rnini ko'rsatadi. Sadoqat ko'pincha **“nur”**, **“tog'”**, **“o'zgarmaslik”** kabi ijobiy tushunchalar bilan bog'lansa, xiyonat **“pichoq”**, **“zulmat”**, **“tuz”** kabi og'riqli metaforalar orqali ifodalanadi [7]. Lisoniy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sadoqat va xiyonat konseptlari milliy dunyoqarashning asosi bo'lib, ular inson xatti-harakatlarini baholashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Konseptosfera doirasida ushbu tushunchalar inson ruhiyatining ijobiy va salbiy qutblarini birlashtiradi [11]. Badiiy adabiyot ushbu tushunchalar orqali insoniyatning eng chuqur axloqiy muammolarini, uning ruhiy yuksalish va tanazzul yo'llarini tadqiq etadi. Sadoqat bu shaxsning o'zligi, jamiyati va sevgisiga bo'lgan mas'uliyati bo'lsa, xiyonat esa bu mas'uliyatdan qochish va axloqiy inqirozdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davrlar va ijtimoiy tuzumlar o'zgarsa-da, sadoqatning qadri va xiyonatning og'rig'i o'zgarmas bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ganjaviy Nizomiy.Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
2. Fitzgerald F. S.The Great Gatsby. – New York: Charles Scribner's Sons, 1925. – 186 p.
3. Morrison T.Beloved. – New York: Alfred A. Knopf, 1987. – 525 p.
4. Yo'ldoshev Q. va boshq.Badiiy tahlil asoslari. – Urganch: UrDU, 2008. – 120 b.
5. Yo'ldoshev Q.Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
6. Lotman Yu. M.The structure of a literary text. – Moscow: Nauka, 1970. – 265 p.
7. Likhachev D. S.Conceptual sphere of the Russian language // Russian Literature: Anthology. – Moscow: Academia, 1997. – 196 p.
8. Islamjanova H.Linguistic and cultural aspects of translation activities. – Toshkent, 2011.
9. Mamatov A. E.Hozirgi zamon o'zbek tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent: Fan, 1991. – 276 b.
10. Maslova V. A.Introduction to linguacultural studies: a textbook. – Moscow: Nasledie, 1997 – 208 p.
11. Popova Z. D., Sternin I. A.Language and national picture of the world. – Voronezh: ISTOKI, 2003. – 59 p.